




## NAVOIY VILOYATIDA OLIIY TA'LIM TIZIMI



Oliy ta'lim bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalvriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalvriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura tegishli bakalvriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.





Navoiy viloyatida oliy ta'lim tizimida 2 ta oliy ta'lim tashkilotlari – Navoiy Davlat Pedagogika Instituti va Navoiy Davlat Konchilik Instituti faoliyat yuritmoqda.

Navoiy viloyatida 2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlarida 17015 ta talaba tahsil olayotgan bo'lib, ulardan bakalavr bosqichida 16668 nafar talaba, magistratura bosqichida 347 nafar talaba tahsil olmoqda.



# Oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari (o'quv yili boshida)



O'quv yili boshiga	Oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlik	Talabalar soni, kishi	Qabul qilinganlar soni, kishi	Bitirganlar soni, kishi	Professor o'qituvchilar soni, kishi
2019/2020	2	13636	3737	2374	716
2020/2021	2	17015	5480	3107	714

2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida 17015 nafar talaba ta'lim olmoqda. Davlat grantlari asosida 3710 nafar (21,8 %), to'lov shartnoma asosida esa 13305 nafar (78,2 %) talabalar tahsil olmoqda. Jami talabalar sonidan kunduzgi bo'limda 12252 nafar, kechki bo'limda 299 nafar, sirtqi bo'limda esa 4464 nafar talabalar tahsil olmoqda.

**Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi**  
(2020/2021- o'quv yili boshida)



ayollar

**59,9%**



**2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlarida jami 17015 nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 10197 nafarini (59,9 %) qizlar va 6818 nafarini yigitlar (40,1 %) tashkil etdi.**

erkaklar

**40,1%**




**Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining yoshi  
bo'yicha taqsimlanishi, kishi  
(2020/2021- o'quv yili boshiga)**



<b>Jami</b>	<b>17015</b>	<b>26 yosh</b>	672	<b>36 yosh</b>	100
<b>17 yosh va undan kichik</b>	452	<b>27 yosh</b>	446	<b>37 yosh</b>	69
<b>18 yosh</b>	1293	<b>28 yosh</b>	362	<b>38 yosh</b>	92
<b>19 yosh</b>	1533	<b>29 yosh</b>	261	<b>39 yosh</b>	90
<b>20 yosh</b>	2365	<b>30 yosh</b>	199	<b>40 yosh</b>	39
<b>21 yosh</b>	2298	<b>31 yosh</b>	137	<b>41 yosh</b>	43
<b>22 yosh</b>	2266	<b>32 yosh</b>	132	<b>42 yosh</b>	39
<b>23 yosh</b>	1507	<b>33 yosh</b>	123	<b>43 yosh</b>	29
<b>24 yosh</b>	1138	<b>34 yosh</b>	136	<b>44 yosh</b>	32
<b>25 yosh</b>	947	<b>35 yosh</b>	71	<b>45 yosh va undan katta</b>	144

✓ 2020/2021- o'quv yili boshiga Navoiy viloyati oliy ta'lim tashkilotlarida 17015 nafar talaba ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 2365 nafari 20 yoshni, 2298 nafari 21 yoshni, 2266 nafari 22 yoshni, 1507 nafari 23 yoshni tashkil etmoqda.


# Oliy ta'lim tashkilotlarida o'qiydigan kurslari bo'yicha talabalar soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)



Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarining umumiy soni 17015 nafarni tashkil etib, ulardan 1- kursda 5480 nafar, 2- kursda 4491 nafar, 3- kursda 4152 nafar, 4- kursda 2892 nafar talabalar tahsil olmoqda.



# Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)




✓ 2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalariga jami 5480 nafar yoshlar talabalikka qabul qilingan, ulardan davlat granti asosida 1102 nafar (20,1 %), to'lov shartnoma asosida 4378 nafar (79,9 %) talaba qabul qilingan.





# Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirganlar

(2020- yil)



2020- yilda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari soni 3107 nafarni tashkil etib, ulardan 1807 nafari yoki 58,2 foizini qizlar tashkil etadi. Shuningdek bitiruvchilarning 25,7 % davlat grantlari asosida, 74,3 % to'lov shartnoma asosida ta'lim olib, bakalavr hamda magistr darajasiga ega bo'ldi.

## Oliy ta'lim tashkilotlarining professor- o'qituvchi xodimlari soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)



✓ 2020/2021- o'quv yili boshida Navoiy viloyati oliy ta'lim tashkilotlarida jami 714 nafar professor-o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 303 nafari ayollar (42,4 %) ni tashkil etsa, 411 nafari erkaklar (57,6 %) dan iborat. Fan doktor ilmiy darajaga ega bo'lganlari 17 nafarni, fan nomzodlari 119 nafarni hamda falsafa doktorlari 31 nafarni tashkil etmoqda.

Shuningdek ilmiy unvoni bo'yicha professorlar 16 nafarni, dotsentlar 97 nafarni tashkil etadi.





Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi  
Tel.: (79) 223-54-98

*Navoiy viloyati  
statistika boshqarmasi*

10